TA’LIM JARAYONIDA O‘QUVCHILARNING ESSE YOZISH MALAKALARINI OSHIRISHNING INNOVATSION USULLARI

https://doi.org/10.70728/phil.v05.i03.058

Abdujabbarova Feruza Abdunazarovna
feruzaabdujabbarova@yandex.com
Abbosova Mubinabonu Qahhorjon qizi
bonuqahharovna@gmail.com
Oriental Univeriseti

Annotatsiya: Maqolada o‘quvchilarning esse yozish malakalarini rivojlantirishning bosqichma-bosqich va innovatsion usullari ko‘rib chiqildi. So‘z boyligini oshirish, bog‘lanishli nutq tuzish va matn yaratish bosqichlarida “Yon daftar”, “Maktub”, “Matnni davom ettiring” kabi interaktiv va musobaqa asosidagi metodlar taklif etiladi. Ushbu usullar o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, mantiqiy izchillik va ijodiy ifoda qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Xorijiy tajribada Self-Regulated Strategy Development (SRSD) modeli, peer review, mentor matnlar va sun’iy intellekt vositalari (ChatGPT) kabi usullar o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, mantiqiy izchillik va ijodiy ifoda qilish ko‘nikmalarini sezilarli darajada oshirishi isbotlangan. Ushbu usullar o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, mantiqiy izchillik va ijodiy ifoda qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: esse yozish, innovatsion usullar, so‘z boyligi, bog‘lanishli nutq, matn yaratish, interaktiv metodlar, tanqidiy fikrlash, o‘quvchilar malakasi, bosqichma-bosqich yondashuv, musobaqa usullari, SRSD modeli, peer review, mentor matnlar va sun’iy intellekt vositalari (ChatGPT)

INNOVATIVE APPROACHES TO ENHANCING STUDENTS’ ESSAY WRITING PROFICIENCY WITHIN THE LEARNING PROCESS

Abdujabbarovna Feruza Abdunazarovna
feruzaabdujabbarova@yandex.com
Abbosova Mubinabonu Qahhorjon qizi
bonuqahharovna@gmail.com
Oriental University

Abstract: The article examines step-by-step and innovative methods for developing students’ essay-writing skills. Interactive and competitive methods such as "Notebook," "Letter," and "Continue the Text" are proposed for the stages of

(cc) BY

vocabulary expansion, coherent speech construction, and text generation. These methods serve to form students' critical thinking, logical coherence, and creative expression skills. Foreign experience has proven that methods such as the Self-Regulated Strategy Development (SRSD) model, peer review, mentor texts, and artificial intelligence tools (ChatGPT) significantly enhance students' critical thinking, logical consistency, and creative expression. These approaches contribute to the development of students' proficiency in forming well-structured and meaningful compositions.

Keywords: essay writing, innovative methods, vocabulary, coherent speech, text creation, interactive methods, critical thinking, student skills, step-by-step approach, competitive methods, SRSD model, peer review, mentor texts, artificial intelligence tools (ChatGPT)

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri -yosh avlodni global dunyoda muvaffaqiyatli ishtirok etishga tayyorlashdir. Bunda yozma nutq malakasi, xususan, esse yozish ko‘nikmasi muhim o‘rin tutadi. Esse nafaqat fikrni mantiqiy ifodalash, balki tanqidiy tahlil qilish, dalillar keltirish, ijodiy yondashuv va o‘z pozitsiyasini asoslash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Biroq, O‘zbekiston ta'lim muassasalarida o‘quvchilarning ko‘pchiligi esse yozishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda: tuzilishning zaifligi, so‘z boyligining cheklanganligi, motivatsiya pastligi va individual yondashuvning yetishmasligi kabi muammolar kuzatilmoqda.

So‘nggi yillarda ta'limda innovatsion o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. An'anaviy “o‘qituvchi - o‘quvchi” modelidan farqli ravishda, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt vositalari (masalan, ChatGPT), interaktiv platformalar va ijodiy metodlar (vizual yozuv, mentor matnlar, flipped classroom) keng qo‘llanilmoqda.

Xorijiy tajribada SRSD (Self-Regulated Strategy Development) modeli, writing conferences va peer review usullari esse yozish sifatini sezilarli darajada oshirgani isbotlangan. O‘zbekistonda ham bunday innovatsiyalarni joriy etish dolzarb bo‘lib qolmoqda, chunki ular o‘quvchilarni passiv o‘quvchidan faol ijodkor shaxsga aylantiradi.

Ma'lumki, an'anaviy metodlar (shablon bo‘yicha yozish, ko‘chirish) o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini cheklaydi va motivatsiyani pasaytiradi. Avvalgi tadqiqotlarda (masalan, O‘zbekiston pedagogika universitetlari ishlarida) yozma nutqni rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqilgan bo‘lsa-da, innovatsion raqamli va interaktiv usullarning kompleks qo‘llanilishi yetarli o‘rganilmagan.

So‘nggi yillarda ta'lim tizimiga kirib kelgan raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt vositalari hamda turli interaktiv platformalari ma'lum darajada “o‘qituvchi-

(cc) BY

o‘quvchi” juftligi ayni paytda chegaralangan, bir qolipga solingan model ekanligini ko‘rsatmoqda.

Xorij ta’lim tizimida bu juftlik modeli, bir qancha onlayn ta’lim platformalari hamda o‘qitish va o‘qish jarayoniga faol kirib kelayotgan sun’iy intellekt vositalari bilan boyitilmoqda, bu jarayon o‘zbek ta’lim tizimiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda.

O‘zbek ta’lim tizimining hozirgi jarayoni dunyo ta’lim tizimida sinalgan turli ta’lim metodlari, vositalari va dasturlar, loyihalar bilan to‘ldirilib, uyg‘unlashib bormoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Yozma nutqni rivojlantirish, xususan, esse yozish malakasini shakllantirish masalasi pedagogika va metodika fanlarida keng o‘rganilgan yo‘nalishlardan biridir. Mazkur muammo doirasida o‘zbek va xorijiy olimlar tomonidan turli yondashuvlar ishlab chiqilgan.

Mahalliy tadqiqotlarda yozma nutqni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari keng yoritilgan.

Jumladan, Jalolova L. yozma nutqni bosqichma-bosqich shakllantirish zarurligini ta’kidlab, o‘quvchilarda fikrni izchil ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantirishda tizimli mashqlar muhim o‘rin tutishini qayd etadi [1].

Madayev O. va boshqalar yozma ish turlarini (insho, bayon, diktant) o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishdagi asosiy vositalardan biri sifatida baholaydi [2].

Shuningdek, Almamatov T., Yadgarov Q., Almamatova Sh. hamda Yusupova Sh., G‘oziyeva O. tadqiqotlarida ona tilini o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanishning samaradorligi asoslab berilgan [3; 7]. Ularning fikricha, interaktiv metodlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, dars jarayoniga faol jalb etish va motivatsiyani oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish masalalari Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A., Jo‘rayev R.X. va R. Ishmuxamedov kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, ular zamonaviy ta’limda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlikka asoslangan yondashuvni ilgari suradilar [4; 5; 6]. Mazkur yondashuv esse yozish jarayonida ham o‘quvchining faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Xorijiy tadqiqotlarda esa esse yozishni o‘rgatishda Self-Regulated Strategy Development (SRSD) modeli alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu model o‘quvchilarda o‘z-o‘zini nazorat qilish, rejalashtirish, tahrir qilish va baholash ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, yozma ish sifatini sezilarli darajada oshirishi ilmiy jihatdan isbotlangan. Shuningdek, o‘zaro baholash (Peer review) mentor matnlar bilan ishlash va yozish jarayoni bo‘yicha maslahatlashuv (writing

(cc) BY

conference)kabi metodlar o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuvini rivojlantirishda samarali hisoblanadi.

So‘nggi yillarda sun’iy intellekt vositalari, xususan, ChatGPT kabi tizimlardan ta’lim jarayonida foydalanish imkoniyatlari kengaymoqda. Ular o‘quvchilarga matn tuzish, g‘oya ishlab chiqish va tahrir qilishda yordam beruvchi qo‘shimcha vosita sifatida xizmat qilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillari hamda interaktiv o‘qitish strategiyalari tashkil etadi. Ushbu yondashuvlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va yozma nutq ko‘nikmalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi.

TAHLIL VANATIJALAR

Yozma nutqni rivojlantirish doimiy va bosqichma-bosqich jarayon bo‘lib, u kichik yoshdan boshlanib, maktab yillarida davom etadi [1]. Ushbu jarayonda o‘qituvchidan sabr-toqat, individual yondashuv va innovatsion metodlarni qo‘llash talab etiladi.

Maqolada esse yozish malakasini oshirishning bosqichma-bosqich innovatsion usullari - so‘z boyligini boyitish va bog‘lanishli matn yaratishga qaratilgan amaliy metodlar ko‘rib chiqiladi.

Birinchi-bosqich. O‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish:

So‘z boyligi esse yozishning asosiy poydevori hisoblanadi. Badiiy adabiyot bu borada eng samarali manba bo‘lib, ertaklar, hikoyalar va boshqa asarlar orqali o‘quvchilarning leksik zaxirasi va fikrlash doirasi kengayadi [2]. Bolalarni yoshligidanoq kitob o‘qishga o‘rgatish ota-onalar, bog‘cha tarbiyachilari va maktab o‘qituvchilarining umumiy mas’uliyatidir. Kitob tanlashda bolaning yoshi, qiziqishlari va ruhiy holatiga moslik muhim ahamiyatga ega.

“Yon daftar” usuli so‘z boyligini oshirishning samarali innovatsion yo‘llaridan biridir. O‘quvchilar har kuni yo‘lida uchragan notanish so‘zlarni yozib, ularga qisqa izoh berib boradilar. Agar kuniga kamida 10 ta so‘z qayd etilsa, bir yilda taxminan 3000 ta yangi so‘z o‘zlashtirilishi mumkin. Bu usul barcha sinflarda qo‘llanilishi mumkin bo‘lib, o‘quvchilarda mustaqil izlanish va qunt bilan ishlay olish ko‘nikmasini shakllantiradi.

Xorijiy tajribada mentor matnlar (mentor texts) usuli keng qo‘llaniladi: o‘quvchilar yaxshi yozilgan esse yoki maqolalarni o‘qib, undagi so‘z boyligi, uslub va tuzilishni tahlil qiladilar (Innovative Teaching Ideas, 2024). Bu usul so‘z boyligini oshirish bilan birga, ijodiy fikrlashni rivojlantiradi.

Ikkinchi-bosqich. Bog‘lanishli nutq tuzish va matn yaratish:

Bu bosqichda o‘quvchilar avval og‘zaki, keyin yozma shaklda bog‘lanishli nutq tuzishni o‘rganadilar. Metodist olima T. Ziyadovaning “MYBT - 4” moduli bu

(cc) BY

jarayonni samarali tashkil etishga yordam beradi. Modul quyidagi bosqichlardan iborat:

- So‘z tanlash
- So‘z birikmalari hosil qilish
- Gap tuzish
- Matn yaratish

Ushbu tizim soddadan murakkabgacha bosqichma-bosqich rivojlanishni ta’minlaydi.

“Maktub” usuli

5-6-sinflarda qo‘llash uchun mos bo‘lgan bu usul guruh ishi va musobaqa elementlarini o‘z ichiga oladi. Sinf 3-4 guruhga bo‘linadi, har bir guruh o‘zlariga tanlagan shaxsga maktub yozadi. Topshiriqda mantiqiy izchillik, so‘z tanlash mahorati, faktlarga tayanish, husnixat va imlo qoidalariga rioya qilish talab etiladi. Yozib bo‘lingach, maktublar o‘qituvchi tomonidan tekshiriladi va guruh a’zolari tomonidan ifodali o‘qib beriladi. Bu usul o‘quvchilarda hamkorlik, mas’uliyat va yozma ifoda qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

“Matnni davom ettiring” usuli

Ushbu innovatsion usul o‘quvchilarni tez, mantiqiy va uslubiy jihatdan to‘g‘ri yozishga o‘rgatishga qaratilgan. Kirish qismi berilgan matnni davom ettirish topshirig‘i beriladi (masalan: “Har gal bahor kelganida men Oqtepaga - bobomning uyiga boraman. Yo‘ldagi tabiat manzarasi ta’rifiga til ojiz…”).

Sinf 2-3 guruhga bo‘linadi, har bir guruh o‘z matnini yaratadi.

Topshiriq tugagach, matnlar monitor yoki doskada namoyish etiladi va quyidagi mezonlar bo‘yicha baholanadi:

- Imlo savodxonligi;
- uslubiy mahorat va badiiy bo‘yoqdorlik;
- mantiqiy izchillik va to‘liqlik;
- sarlavha mosligi;
- maqol, hikmatli so‘zlar va iboralarning o‘rinliligi.

Guruhlar o‘zaro tanqidiy muhokama o‘tkazadi, hakamlar hay’ati (o‘quvchilar orasidan) tanlanadi. G‘olib guruhning matni maktab devoriy gazetasida e’lon qilinadi. Bu usul lug‘at boyligi, analiz-sintez, tanqidiy fikrlash va matn tahriri ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

“Peer review”(o‘quvchilar bir-birining essesini baholashi) usuli

Xorijiy maktablarda (AQSh, Buyuk Britaniya) peer review - o‘quvchilar bir-birining essesini baholash - eng samarali innovatsion usullardan biri hisoblanadi.

O‘quvchilar o‘zaro fikr-mulohaza (feedback) berish orqali tanqidiy fikrlash, mantiqiy zaifliklarni aniqlash va yozuvni takomillashtirish ko‘nikmalarini

(cc) BY

rivojlantiradilar. (Bu usul “Matnni davom ettiring” musobaqasiga o‘xshash bo‘lib, guruh muhokamasi va hakamlar hay’ati orqali baholashni kuchaytiradi.

“SRSD modeli” (esse yozish strategiyalari) usuli

Self-Regulated Strategy Development (SRSD) - Karen R. Harris va Steve Graham tomonidan ishlab chiqilgan dalillarga asoslangan (evidence-based) yondashuv bo‘lib, o‘quvchilarga esse yozish strategiyalarini o‘rgatadi va o‘z-o‘zini boshqarish (self-regulation) ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, SRSD yordamida o‘quvchilarning esse sifati va motivatsiyasi sezilarli darajada oshadi

Bu modelni O‘zbekiston ta’limida “MYBT - 4” moduli bilan birlashtirishisa kutilgan natijani beradi.

“Sun’iy intellekt” vositalaridan foydalanish usuli

So‘nggi yillarda ChatGPT va shunga o‘xshash AI vositalari (Grammarly, QuillBot) yozuv jarayonida individual fikr-mulohazani yozma ifodasini tartibini o‘rganish uchun qo‘llanilmoqda. O‘quvchilar o‘z matnlarini AI ga yuklab, grammatika, uslub va mantiqiy izchillik bo‘yicha takliflar olish imkoni yaratilgan. (Pearson, 2023; Edutopia, 2024). Bu usul biroz munozarali bo‘lib, u o‘qituvchining zimmasidagi yukini kamaytiradi, chunki o‘quvchilarga tezkor yordam beradi, ammo bu usulning zarari, o‘quvchinig mushoda qilishi va ijodiy yondashishi uchun cheklov beradi, shuning uchun bu jarayon faqat o‘qituvchi nazorati ostida qo‘llanilishi lozim, negaki, o‘quvchida dangasalik va ko‘chirmachilikni rivojlantirish havfi ham mavjud.

XULOSA

Esse yozish malakasini oshirish bosqichma-bosqich va innovatsion yondashuv talab etadi. “Yon daftar”, “Maktub” va “Matnni davom ettiring” kabi mahalliy usullar bilan birga, SRSD modeli, peer review, mentor matnlar va AI vositalarini integratsiya qilish orqali o‘quvchilarning yozma nutq sifati, tanqidiy fikrlashi va mustaqilligi sezilarli darajada oshadi. Ushbu xorijiy tajribalarni O‘zbekiston ta’lim sharoitiga moslashtirish orqali yozma ishlar o‘qitish metodikasini yanada samarali qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Almamatov T., Yadgarov Q., Almamatova Sh. O‘zbek tilini o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish. - Toshkent, 2013.

2. Йўлдошев Ж.Ғ., Усмонов С.А. Замонавий педагогик технологияларни амалиётга жорий қилиш. - Т.: Фан ва технология, 2008.

3. Harris K.R., Graham S. Self-Regulated Strategy Development: A Model for Teaching Writing Strategies. - SRSD Online, 2023-2025.

4. Using Peer Review to Improve Student Writing. - University of Michigan Sweetland Center for Writing.

(cc) BY

5. How to Help Your Students Improve Their Writing Skills. - Pearson, 2023.

6. Using AI Tools to Give Feedback on High School Students' Writing. - Edutopia, 2024.

7. TEAL Center Fact Sheet No. 10: Self-Regulated Strategy Development. - LINCS (U.S. Department of Education).**

8. Мавлонова К. Ўқувчиларни бадиий ижодга ундаш методикаси / Тил ва адабиёт таълимининг долзарб масалалари. Республика илмий-амалий конференция материаллари. - Тошкент, 2013. - Б. 67-70.

9. Мавлонова К. Ўқувчилар ёзаётган иншоларнинг тил хусусиятлари / Кадрлар тайёрлаш миллий дастури - «Ўзбек модели»нинг ажралмас қисми. Республика илмий-амалий конференция материаллари (1-қисм). - Тошкент, 2016. - Б. 248-249.

10. Mavlonova K. O'quvchining yozma nutqi qanday shakllanadi? // Til va adabiyot ta'limi. - Toshkent, 2015. - № 11. - B. 24-25.

(cc) BY